

UCHINCHI SHAXS FOYDASIGA TUZILADIGAN SHARTNOMALAR

Shirinova Shoxista Sanjar qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

E-mail: shirinovashoxista892@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomalarga kengroq to'xtalib o'tilgan. Shartnomaning taraflari hisoblangan qarzdor, kreditor va uchinchi shaxslarning huquq va majburiyatlari haqida tushuntirishlar berilgan. Maqolada uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomaning xususiyatlari hamda amaliyotdagi holati ham bir muncha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: shartnoma, taraflar, qarzdor, kreditor, uchinchi shaxs, huquq hamda majburiyatlar.

Muhokamani boshlashdan avval uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomalar deganda o'zi nima nazarda tutilishi, bunday shartnomalarga nisbatan qanday qoidalar qo'llanilishi haqida to'xtalib o'tsak. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 362-moddasida bunday turdagi shartnomalar haqidagi qoida keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, taraflar qarzdor ijroni kreditorga emas, balki shartnomada ko'rsatilgan yoki ko'rsatilmagan, qarzdordan majburiyatni o'z foydasiga bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'lgan uchinchi shaxsga bajarishi majbur deb belgilab qo'ygan shartnoma uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnoma deyiladi. Odatda tuziladigan shartnomalarda shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlar bevosita shartnoma taraflari uchun vujudga keladi. Uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnomalarda esa taraflar qarzdorning majburiyatini kreditorga emas, uchinchi shaxsga ijro etilishini belgilab qo'yishadi¹. Uchinchi shaxs shartnomada alohida taraf bo'lib hisoblanmaydi. H.R.Rahmonqulovning "Majburiyat huquqi" darsligida ham uchinchi tomon foydasiga tuziladigan shartnomalar yoritib o'tilgan. Unda aytilishicha, shartnomalar o'z belgilari bo'yicha kimning foydasiga tuzilishiga qarab kontragent o'zining yoki uchinchi shaxs foydasiga tuzilishi bilan farqlanadi. Odatda shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlar bevosita uning ishtirokchilari uchun yuzaga keladi. Biroq ayrim, nisbatan kam hollarda huquq shartnoma bo'yicha taraf hisoblanmagan uchinchi shaxs uchun belgilanadi. Ayni shu orqali qarzdorga nisbatan talab qo'yish

¹ O'zbekisto Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild (birinchi qism) Adliya vazirligi. – T.: "Vektor-Press", 2010, – 764-bet

huquqiga shartnoma tuzilishida ishtirok etgan taraf ham, ijro etish kimning foydasiga hal qilingan bo'lsa, ana shu uchinchi shaxs ham yoxud faqatgina uchinchi shaxsning o'zigina ega bo'ladi. Bunday shartnomalar uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomalar deb ataladi¹.

Rahmonqulov ushbu darslik uchinchi tomon foydasiga tuziladigan shartnomalarga misol tariqasida hayotni sug'urta qilish shartnomasini keltirgan. Fuqarolik kodeksining sharhida sug'urta shartnomasi bilan birga yuk tashish shartnomasi ham uchinchi tomon foydasiga tuziladigan shartnomalar kirishi aytib o'tilgan. Sharhlovchining fikricha, yukni (bagajni) tashish shartnomasida yukni (bagajni) oluvchi uchinchi shaxs sifatida e'tirof etiladi. Yana boshqa bir manbada pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash shartnomasi ham uchinchi tomon foydasiga tuziladigan shartnomalarga misol sifatida keltirilgan¹.

Shu o'rinda uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomalar tarixiga yuzlansak. Uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomalar xususiy huquqning an'anaviy quroli hisoblanmaydi. Sababi, Rim xususiy huquqida bir shaxsning irodasi boshqa shaxsning mulkiy sohasi uchun huquqiy oqibatlarni keltirib chiqara olmasligidan kelib chiqadigan qoida mavjudligidadir. Ushbu huquq tizimida uchinchi shaxslarga ular ishtirok etmagan shartnomalar orqali huquqlar berish taqiqlangan. Ammo Rim xususiy huquqining klassik davridan keyingi davrda, so'ngra o'rta asrlarda huquqni qo'llash amaliyotida bir qator istisnolar to'planib qoldi, bu esa huquqshunos olimlar oldiga uchinchi shaxslar foydasiga tuziladigan bitimlar orqali huquqlar berish masalasini ko'rib chiqish muammosini qo'ydi. Va asta-sekin uchinchi tomon foydasiga tuziladigan shartnomalar xo'jalik hayotida o'z o'rnini topa boshladi. Natijada bunday turdagi bitim haqidagi qoidalar Yevropaning ko'plab mamlakatlarida XVIII asrda, ba'zilarida esa XIX asrda amaldagi qonunlarga aylandi².

Uchinchi tomon foydasiga tuziladigan shartnomalar muayyan talablarga javob berishi kerak, xususan:

✓ uchinchi tomon majburiyatlarni bajarish natijalari bo'yicha o'z xohish irodasini e'lon qilgandan so'ng, kontragentlar, ya'ni shartnoma tuzuvchi taraflar u bilan kelishmasdan hujjatning qoidalarini o'zgartira yoki bekor qila olmaydi (qonunda yoki shartnomaning o'zi belgilab qo'yilgan istisno holatlar bundan mustasno);

¹ Mualliflar jamoasi. Shartnoma huquqi. /Huquqshunoslik ixtisosi bo'yicha oliy o'quv yurtlari magistratura talabalari uchun. –T.: TDYI nashriyoti, 2006. –142-bet.

² Договорное право (общая часть): постатейный комментарий к статьям 420–453 Гражданского кодекса Российской Федерации [Электронное издание. Редакция 2.0] / Отв. ред. А. Г. Карапетов. – Москва : М-Логос, 2020. – с. 458

✓ shartnomani bajaruvchi shaxs, ya'ni qarzdor to'g'ridan to'g'ri kreditorning talablariga qarshi chiqishi mumkin bo'lganidek, uchinchi tomonning ham da'volariga qarshi chiqishi mumkin.

✓ agar shartnoma bo'yicha uchinchi tomon o'ziga berilgan huquqdan voz kechsa, kreditor ushbu huquqni o'zi amalga oshirishi yoki amalga oshirishni boshqa shaxsga topshirishi mumkin.

Uchinchi tomon foydasiga tuziladigan shartnomalar yanada tushunarli bo'lishi uchun Rossiya amaliyotidan misol keltirishga harakat qilamiz. Rossiya shaharlarida ko'plab ota-onalar farzandlari kelajakda oila qurib, yashashlari uchun uy-joy xarid qiladilar va uni farzandlar voyaga yetib, oila qurmaganlaricha o'z nomlarida saqlab turishadi. To'g'ri, uy-joyni farzandi nomiga ham oldi-sotdi qilsa bo'ladiku, deyishingiz mumkin, ammo bunga ko'plab ota-onalar ishonishmaydi, farzandlar yosh va g'o'r, oddiy qimor o'ynab uy-joyni tikib yuborishlari yoxud pul zarur bo'lganida ko'chmas mulkni sotib yuborishlari ham mumkin. Umuman olganda, ota-onalarni qo'rqitadigan ko'plab sabablar mavjud. Shunday vaziyatda ota-ona dastlab uy-joyni o'z nomlariga oldi-sotdi qilishadi va keyinchalik farzandlari oila qurgach ularning nomiga hadya yoki meros shartnomasi asosida o'tkazishadi. Bu jarayon ikkita shartnoma tuzishni talab qiladi, ham ko'p vaqt, ham ko'p xarajat sarflanadi. Mana shunday vaziyatda uchinchi tomon foydasiga tuziladigan oldi-sotdi shartnomalari ota-onalarga yordamga keladi. Bunday vaziyatda ota-onalar kreditor sifatida, bola esa uning foydasiga shartnoma tuzilgan uchinchi tomon sifatida maydonga chiqadi. Uchinchi tomon foydasiga tuziladigan shartnomalar xususida Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 430-moddasida keltirilgan. Ushbu moddada keltirilgan qoidalar bizning mamlakatimiz kodeksi bilan deyarli o'xshash. RF Fuqarolik kodeksi 430-moddasiga ko'ra, uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnoma – tomonlar qarzdorning kreditorga emas, balki shartnomada ko'rsatilgan yoki ko'rsatilmagan uchinchi shaxs foydasiga majburiyftni bajarishi shartligi belgilab qo'yilgan shartnoma hisoblanadi. Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, uchinchi shaxs qarzdorga shartnoma bo'yicha o'z huquqini amalga oshirish niyatini bildirgan paytdan boshlab tomonlar o'zlari tuzgan shartnomani uchinchi shaxsning roziligisiz o'zgartirishlari yoki bekor qilishlari mumkin emas. Shartnomaga ko'ra, qarzdor kreditorga qarshi e'tirozlarini uchinchi shaxsga nisbatan ham qo'yishi mumkin. Uchinchi shaxs shartnoma bo'yicha o'ziga berilgan huquqdan voz kechgan taqdirda kreditor ushbu huquqdan foydalanishi mumkin. Ushbu normadan anglashimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksidagi uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomalar haqidagi qoidalar deyarli bir xil.

Yuqorida sug'urta shartnomalari, aynan aytadigan bo'lsak, hayotni sug'urta qilish shartnomalari uchinchi tomon foydasiga tuziladigan shartnomalar sirasiga kirishi

haqida qisqacha to'xtalib o'tdik. Olimlar fikricha, mazkur holatda foyda oluvchi sifatida hayotini sug'urta qildirgan inson o'limidan keyin sug'urta pulini oladigan shaxs nazarda tutiladi.

Quyida biz uchinchi tomon foydasiga tuziladigan shartnomalarni amaliyotda tuzilgan (Rossiya Federatsiyasi amaliyotida) va fuqarolik sudlarida ko'rib chiqilgan sug'urta shartnomasi misolida yoritishga harakat qilamiz. Shu sabab dastlab sug'urta shartnomasi tushunchasiga qisqacha to'xtalib o'tsak. Avvalo shuni ta'kidlab o'tish kerakki, sug'urta shartnomasi qachonki boshqa shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa, uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan deb shartnoma deb hisoblashimiz mumkin. Shaxsan fuqaro yoki yuridik shaxs hamda sug'urta tashkiloti o'rtasida tuziladigan sug'urta shartnomasini uchinchi tomon foydasiga tuzilgan deb ayta olmaymiz. Fuqarolik kodeksining 915-moddasiga muvofiq, sug'urta shartnomasiga muvofiq bir taraf shartnomada shartlashilgan haq evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea sodir bo'lganda boshqa tarafga yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga bu hodisa oqibatida sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoxud sug'urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog'liq zararni shartnomada belgilangan summa dmirasida to'lash majburiyatini oladi. 2019-yilning oktyabr oyida Chelyabinsk viloyatida ko'rib chiqilgan ishda da'vogar – A.K. sug'urta kompaniyasi ustidan da'vo arizasi kiritgan. Da'vo arizasida, da'vogar otasi 2019-yilning avgust oyida vafot etganini, sug'urta kompaniyasi va otasi o'rtasida hayotni sug'urta qilish shartnomasi mavjudligini, otasining o'limidan so'ng mazkur sug'urta tovonni unga to'lab berilishi kerakligini, ammo sug'urta kompaniyasiga qilgan murojaatlariga qaramay mazkur tovon to'lab berilmayotganinini bildirgan. Suddan sug'urta kompaniyasi zimmasiga sug'urta tovoninni to'lash majburiyatini yuklashni so'ragan. Sudning o'rganishlaridan ma'lum bo'lishicha, sug'urta qildiruvchi va sug'urta kompaniyasi o'rtasida tuzilgan sug'urta shartnomasida hech kim naf oluvchi sifatida ko'rsatilmagan. RF FK 934-moddasi 2-qismida, boshqa foyda oluvchi ko'rsatilmagan shartnoma bo'yicha sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlari naf oluvchilar deb e'tirof etilishi qayd etilgan. Ushbu qoidadan kelib chiqqan holda sud marhumning o'g'lini naf oluvchi sifatida e'tirof etgan hamda sug'urta kompaniyasi zimmasiga sug'urta tovonini to'lab berish majburiyatini yuklagan¹.

Shu o'rinda e'tiborimizni yana nazariyaga qaratsak. Uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnoma shartnomaning alohida turini tashkil etmaydi, masalan, oldi-sotdi shartnomasi, ijara shartnomasi, qarz shartnomasi kabi. Uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnoma – bu nazariy jihatdan ko'plab nomli yoki nomsiz shartnomalar

¹ www.sudact.ru

tuzilishi mumkin bo'lgan mexanizm bo'lib, uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnoma belgilarini hisobga olgan holda fuqarolik javobgarlik paydo bo'lishiga olib keladi. Xususan, shartnoma modeliga ko'ra, sug'urta, bank deposit, transport, ijara va hokazo shartnomalar uchinchi shaxs foydasiga tuzilishi mumkin¹.

Uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomalar tuzishning asosiy mazmuni uchinchi shaxs ishtirok etmagan holda unga mustaqil ravishda da'vo qilish huquqini berishdan iborat. Bunga yorqin misol sifatida yuk tashish shartnomasini keltirishimiz mumkin. Yuk tashish shartnomasida yuk oluvchi uchinchi shaxs sifatida ishtirok etadi. Yuk tashish shartnomasi uchinchi tomon foydasiga tuziladigan shartnoma modelidan kelib chiqib to'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzishda ishtirok etmagan tarafga – yuk oluvchi (uchinchi shaxs)ga tovarlarning yo'qolishi shikastlanishi yoki yetkazib berishning kechikishidan kelib chiqadigan da'volarni qilish huquqini beradi². Misol sifatida mamlakatimiz fuqarolik qonunchiligi amaliyotidan sudda ko'rib chiqilgan ishning qisqacha mazmunini keltiramiz. 2021- yilning may oyida yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti bilan fuqaro R.S. o'rtasida yuk tashish shartnomasi imzolangan. Shartnomaga ko'ra, R.S. (yetkazib beruvchi) 3 tonna miqdordagi qurilish materiallarini ikki ish kuni ichida Urgut shahridan Nurota shahriga yetkazib berishi kerak bo'lgan. Ammo yuk tashuvchi avtomashinadagi nosozlik tufayli qurilish materiallari 3 kun kechikib yetkazib berilgan. Buning natijasida yuk oluvchi tomonidan olib borilayotgan qurilish ishlari 3 kunga to'xtab qolgan. Mana shunday vaziyatda yuk oluvchi fuqarolik sudiga mahsulot kechikishi natijasida yetkazilgan zararni undirish to'g'risida da'vo arizasi kiritgan. Yuk tashuvchi avtomashinadagi nosozlik sabab yetkazib berish kechikkanligini, shundan kelib chiqib u hech qanday zararni to'lashga majbur emasligini vaj qilib ko'rsatgan. Ammo avtomashinadagi nosozlik fors-major holati deb topilmasligi sababli sud yuk tashuvchining vajini asossiz deb topgan va yuk oluvchi foydasiga yetkazilgan zararni to'lash haqidagi qarorni chiqargan³. Ushbu sud amaliyotidan anglashiladiki, uchinchi tomon foydasiga tuziladigan shartnomalarda uchinchi shaxslar bevosita ishtirok etmasalarda, shartnomada ishtirok etgan taraflarga nisbatan da'vo qilish huquqi mavjud bo'ladi. Yuqoridagi holatda yakka tartibdagi tadbirkor va fuqaro R.S o'rtasida tuzilgan yuk tashish shartnomasida yuk oluvchi bevosita ishtirok etmagan, ammo sudga yuk tashuvchi ustidan da'vo kiritib, yetkazilgan zararni undirib olgan.

¹ Договорное право (общая часть) : постатейный комментарий к статьям 420–453 Гражданского кодекса Российской Федерации [Электронное издание. Редакция 2.0] / Отв. ред. А. Г. Карапетов. – Москва : М Логос, 2020. – 458 с.

² Договорное право. М.И. Брагинский, В.В. Витрянский. Книга первая. Издание 3-е, стереотипное.

³ www.public.sud.uz

Germaniya huquqida uchinchi tomon foydasiga tuziladigan shartnomalar shartnoma taraflarining uchinchi shaxsga bergan va'dasi deb nomlangan qoidalar bilan tartibga solinadi (Versprechen der Leistung an einen Dritten, Germaniya Fuqarolik kodeksining 328-344-moddalari). Germaniya FK 328-moddasida uchinchi tomon foydasiga tuzilgan shartnomalar ikki turga: haqiqiy va haqiqiy bo'lmagan turlarga ajralishi keltirilgan. Haqiqiy shartnoma bo'yicha, uchinchi tomon shartnomadan mustaqil da'vo oladi, ya'ni uchinchi tomon bevosita shartnoma munosabatlarida ishtirok etmagan bo'lsada, taraflar ustidan sudga da'vo bilan murojaat qilishi mumkin. Haqiqiy bo'lmagan shartnomalarda uchinchi shaxslarga bunday huquqlar berilmaydi. Bunday shartnomalarda uchinchi shaxs faqat ijroni qabul qilishga vakolatli bo'ladi. Agar uchinchi shaxs foydasiga haqiqiy bo'lmagan shartnoma tuzilgan bo'lsa, qarzdor uchinchi shaxsga emas, balki uning kreditoriga nisbatan majburiyat yuzasidan javobgar hisoblanadi. Germaniya tajribasida haqiqiy va haqiqiy bo'lmagan shartnomalarni farqlash uchinchi shaxsning unga bunday shartnoma bilan berilgan huquqlarning hajmiga qarab hal qilinadi. Germaniya huquq tizimida uchinchi tomon foydasiga himoya ta'siriga ega bo'lgan shartnoma tushunchasi ham mavjud, bunday turdagi shartnomalarda uchinchi shaxslar tarafidan yetkazilgan zarar uchun shartnoma tuzgan tarafni javogarlilikdan ozod qilish masalasi yotadi. 1930-yil fevral oyida Germaniya imperatorlik sudi tomonidan ko'rilgan ish ko'plab adabiyotlarda misol sifatida keltiriladi. Uy egasi gaz quvurlarini ta'mirlash uchun A. firmani yollagan. A. firma tomonidan jalb qilingan ijrochilar ishni bajarishda xatoga yo'l qo'yishadi, va buning natijasida binoning gaz tizimi shikastlangan va gaz sizib chiqa boshlagan. Uy Bekasi gaz hidini sezgach, sizib chiqishni aniqlash uchun olov yoqqan. Buning natijasida chaqnash yuzaga kelgan va uy Bekasi zarar ko'rgan. Mazkur holatda ishni bajarishi uchun ijrochilarni jalb qilgan shaxs ularning shartnoma majburiyatlarini bajarishi uchun, aagar ularni tanlashda ehtiyotkorlik bilan harakat qilgan bo'lsa, zarar yetkazganlik uchun javogarlilikdan ozod qilinadi (uchinchi shaxslarning harakatlari uchun javogarlilikdan ozod qilish). Shunday qilib da'vo muvaffaqiyatlikka uchragan. Ammo bu vaziyatda sud firma foydasiga qaror chiqarsa, adolatsiz bo'lardi, chunki chaqnash natijasida uy bekasining sog'ligiga ham zarar yetgan. Sud uy egasi va firma o'rtasida imzolangan shartnomani uzaytirishni, bevosita javogarlilikni esa na ijrochilar va na firma zimmasiga yuklashni lozim topmagan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ushbu qaror hozirgi kunga qadar nemis olimlarining tanqidiga sabab bo'lyapti. Chunki chuqur o'ylab qaralganda, chindan ham uy bekasiga nisbatan adolatsiz qaror chiqarilgan. Olim Ernst fon Kemmer uchinchi shaxs foydasiga himoya ta'siriga ega bo'lgan shartnomalarni sudlar tomonidan ishlab chiqilgan "zaif" shartnoma turi deb e'tirof etgan. Chunki bunday shartnoma huquqbuzarlik sodir etilganda ham ko'proq bitta taraf manfaati uchun xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, uchinchi tomon foydasiga tuziladigan shartnomalarda uchinchi shaxslar bevosita ishtirok etmasalarda, ular uchun huquqlar vujudga keladi. Bunday shartnomalar shartnomalarning alohida bir turi emas. Shartnomaning ko'plab turlari, masalan, sug'urta, oldi-sotdi, renta, omonat saqlash va h.k. shartnomalar uchinchi shaxs foydasiga tuzilishi mumkin ekan. Hozirgi kunda bunday turdagi shartnomalar va shartnomalar natijasida kelib chiqayotgan nizolar soni ham kundan kunga oshib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, uchinchi tomon foydasiga tuziladigan shartnomalarni boshqa shartnomalardan farqlay bilish va nizolarni yecha olish muhim sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild (birinchi qism) Adliya vazirligi. – T.: “Vektor-Press”, 2010, – 816 bet.
2. Rahmonqulov Hoji-Akbar. Majburiyat huquqi (umumiy qoidalar). /Huquqshunoslik ixtisosi bo'yicha oliy o'quv yurtlari “Xususiy huquq” yo'nalishi magistratura talabalari uchun. – T.: TDYI nashriyoti, 2009. – 316bet.
3. Mualliflar jamoasi. Shartnoma huquqi. /Huquqshunoslik ixtisosi bo'yicha oliy o'quv yurtlari magistratura talabalari uchun. –T.: TDYI nashriyoti, 2006. – 352 bet.
4. Договорное право (общая часть) : постатейный комментарий к статьям 420–453 Гражданского кодекса Российской Федерации [Электронное издание. Редакция 2.0] / Отв. ред. А. Г. Карапетов. – Москва : М-Логос, 2020. – 458 с.
5. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – Yuridik adabiyotlar publish nashriyoti, 2020. – 568 bet.
6. Договорное право. М.И. Брагинский, В.В. Витрянский. Книга первая.Издание 3-е, стереотипное.

7. Foydalanilgan internet resurslar:

8. www.lex.uz
9. www.norma.uz
10. www.public.sud.uz
11. www.sudact.ru